



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 586 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munojatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish	308
Ganiyeva Shodiya Azizovna	
Модель "4+1+1" как ключевой механизм в системе практической подготовки учителей музыки.....	313
Мухитдинова Малохатхон Саиджабборовна	
Tarbiya fanini o'qish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	317
Nazarova Nasiba Abdullayevna	
Tarbiyachining kasbiy psixologik xususiyatlari.....	320
Shamshetova Anjim Karamaddinovna	
Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi va metodologiyasi	323
Bo'ronova Iroda Bo'ronovna	
Yosh dzyudochi qizlarning mashg'ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarligini oshirish texnologiyalari	327
Matmuratova Iroda Baxtiyor qizi	
"Odob us-solihin" asarida yoritilgan axloqiy-didaktik g'oyalar va uning pedagogik mazmuni.....	332
A. N. Nusratov	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik asoslari	336
Xolmatov Pardaboy Qoraboevich, Abdurasulova Dilnoza	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida loyihalashtirishning o'rni	342
<i>Abdusattorova Go'zalxon Abdulxabib qizi</i>	
Tibbiyot va frazeologiya inson omilida	346
<i>Achilov Muzaffar Norquliyevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda matematikaning ahamiyati	349
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdulalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Ekoestetik kompetensiyani shakllantirishning xorijiy va milliy tajribalar tahlili	354
<i>Alijonova Maftuna Maxamadjon qizi</i>	
Pedagogik jarayonda talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish mexanizmlari	359
<i>Alikulova Muxayyo Sherovna</i>	
Ingliz ritsarlik romanlarining lingvopoetik tahlili	362
<i>Durdona Boychayeva, Aliyeva Elmira</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning pedagogik asoslari	365
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni mohiyati va tarkibiy tuzilmasi	369
<i>Axmadjonova Jasmira Jamshid qizi</i>	
Developing Writing Competence Among CEFR B1 and Ielts Learners Experiencing Difficulties in English Language Acquisition	374
<i>Ayturayev Majid Mavlankhanovich</i>	
Ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning milliy qadriyatlarga asoslangan modeli	378
<i>Azamov Umarxon Yaxyoxonovich</i>	
Complications in Teaching Argumentative Speech to Students in Grades 8–9	383
<i>Buribayeva Aziza Ismatillaevna</i>	
Interfaol o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari	386
<i>Buriyeva Aziza Nematovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish	390
<i>Davronova Sevinch</i>	
O'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda maqollardan foydalanish bo'yicha manbaalar tahlili	394
<i>Boltayeva Barno, Eliboyeva Surayyo Abdulkarim qizi</i>	
Social Roots and Psychological Consequences of Domestic Violence	399
<i>Dumarova Gulmira Kozimbekovna, Mamadaliyeva Gulmira, Sultonova Zulhayo</i>	
The Transversal-Methodical Competence of a Preschool Educator is the Foundation of Effective And Quality Education	402
<i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning innovatsion yo'llari	406
<i>Erkinova Mehriniso Ro'ziboyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish strategiyalari	411
<i>Eshonkulova Hilola Rajab qizi</i>	
Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning bilish faoliyatiga ta'siri	415
<i>Habibova Shyira Baxtiyorovna</i>	
Ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish	419
<i>Ikromova Sarvinoz Siroj qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda riskologik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	424
<i>Jabborova Dilafuz Furqatovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning psixologik asoslari	428
<i>Jurayeva Sug'diyona Shamsiddin qizi</i>	
Transforming Education: The Impact of Emerging Technologies on Modern Pedagogical Practices	431
<i>Kadirova Ferangiz Himmatillo qizi</i>	
Salomatlik etikasi konsepsiyasi va pedagogik madaniyat – talabalar ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli	435
<i>Kamalova Yoqutxon Bahodirovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish omillari 439 Kenjayeva Dildora Terkashevna Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati 443 Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna Kichik maktab yoshi davrida o'quv faoliyati va o'quv motivlarining shakllanishi 448 Latifa Zarifovna Korayeva Maktabgacha ta'lim tizimining raqamlashtirilishi: xalqaro tajriba va istiqbollar 451 Mahmudova Zulfiya Homidovna, Hoshimova Dilnoza Boymirzoevna Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dizayn tafakkurga o'rgatishda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari 454 Mamadaminova Munisa Maxmudjon qizi, Boboxonova Shodiyona Rustam qizi Tabiatni asrash – kelajakni asrash: Buxoro misolida 459 Mardonova Saodat Muzaffarovna Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish 463 Meyliyeva Nafosat Gulomovna Sun'iy intellektning ta'limda kognitiv va metakognitiv jarayonlarga ta'siri 466 Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning tashkil etilishi 470 Mustofoyeva Muhabbat Husniddin qizi The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 473 Nargiza Khayrullayevna Ortikova, Laziz Azizovich Normuratov Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari 477 Ortiqov Akmaljon Abdusalom o'g'li CLIL metodining O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi 481 Qarshiyeva Sarvinoz Ural qizi The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency 486 Kosimov Sunnat Ravshan ugli Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda tasviriy san'atning o'rni 490 Quvonchbek Abduxamidov Axborot texnologiyalari ta'sirida san'at tushunchasining o'zgarishi 494 Rajabova Laylo O'tkir qizi Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari 498 Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning pedagogik asoslari 501 Yusufzoda Shabnami Yunus, Rashidova Saida Ravshonbek qizi Axborot texnologiyalarini fizika darslarida qo'llash 506 Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li Axborot xavfsizligini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish afzalliklari 510 Raxmetova Lazzat Eshitishda nuqsonli bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligi 513 S. A. Mamatisayeva Androgogik yondashuvning integrativ metodikasi 517 Sattorova Shaxlo Axadovna Gendered Language in Uzbek and English Media Discourse 520 Sultonova Charos Iskandar kizi Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda ijtimoiy ekologik dunyoqarashni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar 527 Suyunova Matluba Abdusaidovna Empatiya shifokor–pasiyent munosabatida: tibbiyot talabalarining psixologik tayyorgarligi 531 Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi, Qurbonova Fotima Farhodjon qizi Modern Approaches to Teaching Grammar 534 Tuychiyev Azamat Farkhod ugli The Importance of Psychological Preparation of Preschool Children for School Education 538 Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li
-------------------------------------	---



Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	541
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar faoliyatida universal ta'limning imkoniyati	544
<i>Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi</i>	
Kurashchilarning umumiy va maxsus sport tayyorgarliklari.....	548
<i>Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li</i>	
Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida ekologik kompetentlik tushunchalarini rivojlantirish bosqichlari.....	551
<i>Yarova Gulhayo Fazliddin qizi</i>	
Arxitektura va dizayn yo'nalishi bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish vositasida axborot almashish jarayonlarini optimallashtirish metodikasini takomillashtirish.....	555
<i>Kuchimov M. K.</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	559
<i>Quldashev Murodjon G'aniyevich</i>	
Лингвистическое исследование влияния социальных сетей на синтаксические изменения в языке современного поколения.....	562
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutq madaniyati.....	566
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Gulimbayeva Barno</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–маҳалля" в Узбекистане ...	570
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Mantiqiy masalalarni bajarishning metodik usullari	575
<i>Tosheva Yulduz</i>	
Bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik-psixologik omillar (jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari misolida)	579
<i>Yarmatov Akbar Normurotovich</i>	
Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirish muammosining xorijiy tadqiqotlardagi talqini	582
<i>Matyakubov Elyor Rajapovich</i>	



ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI

S. A. Mamatisayeva

Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-8163-3458

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, ularning bilish, emotsional, irodaviy hamda shaxsiy rivojlanishida kuzatiladigan o'ziga xos jihatlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, eshitish nuqsonining bolalarning nutqiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi hamda korreksion-pedagogik yondashuvlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: eshitish nuqsoni, surdopedagogika, psixik rivojlanish, nutq buzilishi, muloqot, kompensator imkoniyatlar.

Abstract: This article examines the psychological development characteristics of children with hearing impairments, focusing on specific features observed in their cognitive, emotional, volitional, and personal development. Furthermore, the impact of hearing impairment on the child's speech, social, and emotional development is analyzed, and corrective-pedagogical approaches are recommended.

Key words: hearing impairment, surdopedagogy, psychological development, speech disorder, communication, compensatory abilities.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности психологического развития детей с нарушением слуха, а также специфические аспекты их познавательного, эмоционального, волевого и личностного развития. Дополнительно анализируется влияние нарушения слуха на речевое, социальное и эмоциональное развитие ребёнка, а также предлагаются коррекционно-педагогические подходы.

Ключевые слова: нарушение слуха, сурдопедагогика, психическое развитие, речевые нарушения, коммуникация, компенсаторные возможности.

KIRISH

Eshitish analizatori insonning atrof-muhit bilan aloqasini ta'minlovchi eng muhim sezgi tizimlaridan biridir. Bola hayotining ilk davrlaridanoq eshitish orqali nutqni, tovushlarni, ohangni va ijtimoiy muhitdagi aloqa shakllarini o'zlashtiradi. Shu sababli, eshitishdagi har qanday nuqson bolaning nutqiy, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan maxsus psixologik-pedagogik ishlar ularning individual rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bola shaxsining shakllanish jarayoni insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichda o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Har bir yosh davri yashagan yosh, organizm biologik tizimlarining yetilish darajasi, ularning vazifalari, shu bilan birga odamning qat'iy tajribasi, bilimlarning hajmi, faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi. Yoshi kattalashgan sari bolaning psixik faoliyati boyib boradi, uning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy xususiyatlari orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga va xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi (V. I. Loginova, P. G. Samorukova, P. Yusupova).

Risoladagidek eshitadigan bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etish, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini belgilashda

muhim ahamiyat kasb etadi. L. S. Vigotskiyning “eng yaqin rivojlanish zonasi”, eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar psixik rivojlanishining umumiy qonuniyatlari mavjudligi haqidagi nazariyalari katta ahamiyatga egadir. L. S. Vigotskiy psixologik va pedagogik nuqtai nazardan eshitmaydigan bolalarga nisbatan xuddi normal eshitadigan bolalarga qaragandek munosabatda bo'lish kerakligini e'tirof etgan.

Eshitadigan bola hayotining dastlabki yetti yillik o'sish davrida psixik rivojlanishida kuzatilgan xususiyatlar eshitishining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Dastlabki yetti yil mobaynida bola rivojlanishning uch asosiy bosqichini, ya'ni go'daklik, ilk va maktabgacha davrlarni boshdan kechiradi. Har bir davr o'zicha muhim ahamiyatga ega bo'ladi, zero mazkur davr bosqichlarida yaratilgan shart-sharoitlar takrorlanmaydi. Ilk va maktabgacha davrda bolaning o'sish va rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'ladi, uning jismoniy va psixik jihatlari o'sadi hamda shaxs sifatida rivojlanishini belgilaydi. Maktabgacha davrda shakllangan bilim va malakalar keyinchalik maktabda turli soha bilimlarini egallanishini ta'minlaydi.

L. S. Vigotskiy va D. B. Elkonin har bir psixologik yoshni quyidagi mezonlar bilan belgilashni taklif qiladi:

- rivojlanishning ijtimoiy holati, ya'ni mazkur davrda bola va katta kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakli;
- mazkur davrda bolaga xos bo'lgan asosiy faoliyat turi;
- asosiy psixik xususiyatlar va shaxsiy sifatlar;
- rivojlanishdagi krizis, ya'ni o'sish davrlarini bir-biridan ajratadigan, kattalar va bola o'rtasidagi munosabatlarning qayta qurilishida namoyon bo'ladigan hal qiluvchi davr.

Go'daklik davri. Go'daklik davri – bola hayotining birinchi yili – rivojlanishning yuqori sur'ati bilan xarakterlanadi. Mazkur davrda sensor tizimlar: ko'rish, eshituv, taktil sezgi jadal rivojlanadi. Mo'ljal olish harakatlarning oddiy shakllari: diqqatni jamlash, ko'z bilan chamalash, aylana harakatlar bajarish shakllanadi. Chaqaloqning dastlabki maqsadli ushlar harakati rivojlanadi. Narsalarni ushlar asosida manipulyativ harakatlar rivojlanadi. Manipulyasiyalar (oddiy harakatlar) asta-sekin predmetli harakatlarga aylanib boradi, bu esa predmetlarning sifat va xossalarini anglash va o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Bolaning dastlabki yoshidan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatlarini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (qissiy va qissiy-predmetli muomala) eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi.

Maktabgacha surdopedagogika L. S. Vigotskiy, I. M. Solovyev, T. V. Rozanova kabi psixologlarning psixik va jismoniy rivojlanishdagi kamchilik bolaning umumiy rivojlanishining izdan chiqishiga olib kelishi, bunday bola anomal deb hisoblanishi mumkinligi haqidagi ilmiy nazariyalariga asoslanadi. Eshitishning pasayishi bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi, muloqot qilish, idrok etish, fikrlash, bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida nutqning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, eshitishning pasayishi bilan bog'liq umumiy va xususiy jihatlarni tushunish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilish zarur. L. A. Venger, D. B. Elkonin, F. Alimxodjaeva, U. Fayzieva, N. Bekmuratov, X. Gaynutdinovlarning ilmiy tadqiqotlari eshitish qobiliyati pasaygan va me'yorda eshituvchi bolalar rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilashga, korreksion-tarbiyaviy ish metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

R. M. Boskis, T. A. Vlasova, A. A. Kataeva, I. M. Solovyev, T. V. Rozanova, J. I. Shif, I. Kislisina, U. Fayzieva, F. Alimxodjaevalarning tadqiqotlarida maktabgacha va maktab yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar haqida ma'lumotlar to'plangan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni differensial tarzda o'qitish muammolarini hal etishda, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda ularning psixologik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Eshitish qobiliyati pasaygan bolalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshi, psixik xususiyatlari, nutqiy rivojlanishiga mos psixolog-pedagogik o'rganish metodlarini tanlash, ularning rivojlanish salohiyatlarini aniqlash, samarali korreksion-tarbiyaviy ishni tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha surdopedagogika lingvistik fanlar va psixolingvistika bilan bevosita bog'liqdir. Bola tomonidan nutqning egallanish me'yorlarini bilish eshitishi pasaygan bolalarning nutqiy rivojlanishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, ularga ona tilini o'rgatish tizimini modellashtirish jarayonlarida psixolingvistika (A. A. Leontev), shuningdek L. S. Vigotskiy, A. R. Luriya, I. Jinkin, U. Fayzieva, F. Alimxodjaeva, X. Gaynutdinov, X. Roziqov, I. Otajonov va boshqa surdopedagoglar tadqiqotlarida ishlab chiqilgan nutqning hosil bo'lishi va eshituv hamda nutq rivojlanish model-lari keng qo'llaniladi.

Psixolingvistik yondashuv eshitishning pasayishi oqibatida yuzaga kelgan nutqiy buzilish mexanizmi va tuzilishini aniqlash, ta'lim jarayonida turli til vositalarini qo'llash imkonini yaratadi (L. A. Golovchis).



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Intellektual rivojlanishi me'yorda bo'lgan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishi eshitishi risoladagidek bo'lgan bolalarga nisbatan kechroq boshlanib, ravon gapirish bosqichiga yetmaydi. 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan kar bolalarda turli tuman ovoz chiqarish, gug'ulash, inqillash, g'uldirash, lablarni cho'lpilatish, ovozsiz artikulyatsiya qilish, turli xatti-harakatlar orqali o'z xohish-istaklarini va munosabatini bildirishga harakat qilish o'ziga xos xususiyatdir. Odatda kar bolalar jarangdor ovozga, kulgi va tabiiy yig'iga ega bo'ladilar.

Ovozni qabul qilish qobiliyati yo'qligi tufayli o'rgatilmagan kar bolalarda aksariyat hollarda ovozga (reaksiyaga) munosabat bildirish hislatlari ular katta bo'lgan sari keskin susayib boradi. Ko'pchilik kar bolalarda gapiruvchining lab harakatini kuzatish, lab harakatiga ovoz chiqarib yoki chiqarmasdan taqlid qilish holatlari kuzatiladi.

1. Kar bolalarning sensor va aqliy rivojlanishi

Eshitish qobiliyatining rivojlanishi. Odatda kar bolalar kuchli tovushlarni: uchayotgan samolyot ovozini, parovoz qichqirig'ini, qattiq chiqarilgan mashina signalini, pianino, baraban, nog'ora kabi musiqa asboblarning ovozlarini sezadilar. Aql-idroki rivojlangan kar bolalarning ko'pchiligi kuchli samolyot tovushini, parovoz qichqirig'ini, pianino, royal, karnay, nog'ora kabi musiqa asboblarning tovushini, chaqmoq va momoqaldiroq ovozini, qattiq yopilgan eshik ovozini idrok etadilar. Tovush to'lqinlarini sezmaydiganlari kamdan-kam uchraydi.

Kichik yoshdagi bolalarning tovushlarga munosabati turlicha bo'ladi. Ovozga nisbatan ularning ko'pchiligi ixtiyorsiz munosabat bildiradi: bola boshini ovoz manbai tomon buradi, tikilib qoladi, ko'z qorachig'i kengayadi, alanglab qaraydi, tovush manbaini qidiradi, cho'chib ketadi, kipriklarni pipiratadi, qizarib ketadi, kuladi, jilmayadi, yig'laydi.

Kar bolalar asta-sekin tovushlarga ko'nikib qolib, ularga e'tibor bermay qo'yadi, javob reaksiyasi susayib, o'rganib qolish hissi paydo bo'ladi. Shuningdek, bolalarda tovush manbalariga munosabat reaksiyasi ham o'zgarib boradi. 2,5 yoshgacha bo'lgan bolalarda tovushga munosabat taxminiy tarzda bo'lib, bu munosabat tez sinuvchan bo'ladi va tez orada yo'qoladi. 3 yoshli bolalarda tovushga tez va aniq reaksiya paydo bo'ladi.

Biroq tovushga tez ko'nikish jarayoni kar bolalarda maktabgacha tarbiya yoshidan o'tguncha ham davom etadi. Maktab yoshi bo'sag'asida bo'lgan bolalarda ovozga tez ko'nikib ketish holati kuzatilib, ular odatda tovushga bir marta munosabat bildiradi, keyin tovushni qisqilsalar-da, unga ahamiyat bermay qo'yadi. Nutqiy tovushlarga aksariyat kar bolalar munosabat bildirmaydi.

Muayyan yoshgacha ular maxsus mashqlarsiz ham eshitish qoldiqlari vositasida tovushni his qiladilar. Sababi – bolalarda his qilish qobiliyati asta-sekin rivojlanib boradi, ayni paytda nutqiy va nutqdan tashqari tovushlarni bir-biridan farqlash hissi kuchayadi, shuningdek, tovush manbalarni uzoqroq masofadan his qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

2. Ilk davrda kar bolalarning aqliy va sensor rivojlanishi

Kar bolalar o'z hayotining birinchi kun va oylaridanoq o'sishida nomaqbul shart-sharoitlarga duch keladi. Eshitish qobiliyati me'yorda bo'lgan bolalarga nisbatan kar bolalarda o'tirish, turish, yurish kechroq o'rganiladi. Bu hol o'z navbatida analizatorlar o'rtasidagi aloqalarning buzilishiga, atrof-muhitni o'rganishning cheklanishiga olib keladi.

O'tirish harakati bilan bog'liq predmetli harakatlar rivojlanishi orqada qoladi, oqibatda predmetlarni idrok qilish qobiliyati susayadi. Atrof-muhitni, predmetlarning fazoviy munosabatlarini idrok qilish xususiyatlari ham buziladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Bilish jarayonlarining o'ziga xosligi

Eshitish imkoniyatining cheklanishi bolaning bilish faoliyatini sezilarli darajada o'zgartiradi. Tovush orqali olinadigan axborot kamaygani uchun ko'rish, teginish va harakat analizatorlari yetakchi rolni egallaydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar atrof-muhitni asosan vizual idrok orqali anglaydilar. Shu sababli ularning ko'ruv xotirasi, diqqatni jamlash va kuzatuvchanlik qobiliyatlari yaxshi rivojlanadi. Biroq eshituv xotirasi, so'z bilan bog'liq tafakkur, nutqiy tahlil va sintez jarayonlari sustroq kechadi.

Tafakkur asosan konkret–obrazli shaklda rivojlanadi, ya'ni ular ko'rgan narsa orqali fikrlashga moyil bo'ladilar. Abstrakt tushunchalarni o'zlashtirishda, umumlashtirish va sabab–oqibat aloqalarini aniqlashda qiyinchiliklar kuzatiladi.

2. Emotsional va irodaviy rivojlanish xususiyatlari

Eshitish nuqsoni bolaning emotsional holatiga ham ta'sir etadi. Ular boshqalarning ohang, intonatsiya yoki kayfiyat o'zgarishlarini eshitib idrok qila olmaydilar. Natijada emotsional reaksiyalar kechikkan, ba'zan noturg'un bo'ladi.

Ba'zi bolalarda o'zini tutishdagi tortinchoqlik, ijtimoiy faollikning pastligi yoki teskari holatda – agressivlik va injiqlik holatlari kuzatiladi. Bu holatlarning oldini olish uchun psixologik qo'llab-quvvatlash, guruhii o'yinlar, drammatizatsiya mashg'ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Irodaviy sifatlar – sabr, qat'iyat, mustaqillik – maxsus ta'lim jarayonida asta-sekin shakllanadi. Ular har bir muvaffaqiyatdan keyin rag'batlantirish orqali mustahkamlanadi.

3. Shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlari

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola ko'pincha muloqotdagi cheklov sababli atrofida bilan kamroq aloqada bo'ladi. Natijada ijtimoiy tajriba yetishmovchiligi yuzaga keladi. Ular o'z his-tuyg'ularini imo-ishora, mimika, yozma nutq orqali ifodalaydilar.

To'g'ri yondashuvda bu bolalar juda kuzatuvchan, aniqlikka intiluvchan, vizual tafakkurga ega bo'ladilar. Guruhda o'z o'rnini topganida esa ular jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishlari mumkin.

Shu bois surdopedagoglar va psixologlar ularning ijtimoiy moslashuvi uchun ijobiy muhit yaratishi zarur: bu muhitda bolalar o'z fikrini erkin ifoda eta oladi va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi.

4. Nutqiy rivojlanishning o'ziga xosligi

Eshitish nuqsoni bolaning og'zaki nutqini shakllantirishda asosiy to'siq hisoblanadi. Tovushni eshitib farqlay olmaslik natijasida tovush talaffuzi buziladi, so'z boyligi kam bo'ladi, gap tuzilmasida grammatik xatolar kuzatiladi.

Logopedik mashg'ulotlarda labdan o'qish, daktill nutqi va imo-ishora tili asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Eshitish apparatlari yoki kochlear implantatsiya yordamida nutqni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Eng muhimi, bu jarayon doimiy psixologik qo'llab-quvvatlash bilan olib borilishi kerak.

5. Korreksion-pedagogik yondashuvlar

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda integrativ yondashuv – ya'ni psixolog, logoped, surdopedagog va ota-onalar hamkorligi juda muhim.

Ularning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- bilish jarayonlarini (xotira, tafakkur, idrok) faollashtirish;
- ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish;
- emotsional holatni barqarorlashtirish.

Korreksion mashg'ulotlarda vizual ko'rgazmalilik, sensor o'yinlar, emotsional muloqot elementlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixologik rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularning bilish faoliyati, emotsional holati, irodaviy jarayonlari hamda shaxsiy shakllanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Eshitish qobiliyatining cheklanganligi, avvalo, nutq rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada bola atrof-muhit bilan to'laqonli muloqot qila olmaydi, bu esa ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtiradi. Mazkur holat bolalarda o'ziga ishonchsizlik, emotsional beqarorlik, yakka-yolg'izlik hissi yoki aksincha – tajovuzkorlik, negativizm kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu bilan birga, eshitish nuqsoni bolaning intellektual salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, biroq ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonining murakkablashgani sababli ularning tafakkuri vizual-obrazli yo'nalishda rivojlanadi. Bunday bolalarda diqqat, xotira, tasavvur kabi bilish jarayonlari ko'proq ko'rish va sezgi organlari orqali shakllanadi. Shuning uchun ularga ta'lim jarayonida vizual materiallar, ko'rgazmali qurollar, mimika, imo-ishora va texnologik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitishda kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda ota-ona, pedagog, psixolog va surdopedagoglarning hamkorligi muhimdir. Erta tashxis va o'z vaqtida korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilgan taqdirda, bunday bolalarda nutqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishdagi kechikishlarni sezilarli darajada kamaytirish, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalbaeva X. J. Maktabgacha surdopedagogika. Toshkent – 2007.
2. Usmonova F., Qodirova S. Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. Toshkent – 2019.
3. Leongard E. I. Psixologiya gluxix i slaboslyshashix detey. Moskva – 2002.
4. Luriya A. R. Osnovy neyropsixologii. Moskva – 2003.
5. G. B. Abramova. Vozrastnaya psixologiya. Moskva – 2018.
6. Mamatisayeva S. (2025). Cochlear implantation – a modern method of hearing restoration. Akademicheskoye issledovaniya v sovremennoy nauke, 4(32), 67–69.
7. Mamatisayeva S. (2025). Koxlear implantat bolalarda og'zaki nutqni idrok etishda pedagogik usullar. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.1), 388–392.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.